



---

**ABU BAKR KALOBODIY - TASAVVUF TA'LIMOTINING BUYUK  
NAZARIYOTCHI OLIMI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10554880>

**Navro`z Abdubannoev**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*"Tasavvuf hermeneotikasi" mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada X asrda yashab ijod etgan mash`hur tasavvuf nazariyotchilaridan biri – Buxoro Tasavvuf maktabining asoschisi Abu Bakr ibn Abu Is`hoq Kalobodiy Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi xususida muxtasar tarzda fikr yuritiladi.

Maqolada shuningdek, Abu Bakr Kalobodiyning tasavvuf ilmi nazariyasiga oid mash`hur asari – “Kitob at-ta`arruf li mazhabi at-tasavvuf” asari xususida ishonchli manbalar asosida ma`lumotlar keltiriladi.

**Kalit so`zlar**

Buxoro, Tasavvuf, Tasavvuf nazariyasi, Abu Bakr Kalobodiy, “Kitob at-ta`arruf li mazhabi at-tasavvuf”.

**ABU BAKR KALABADI - A GREAT THEORETICAL SCIENTIST OF SUFI  
TEACHING**

**Navruz Abdubannoev,**

*2nd year master's student in the specialty "Hermeneutics of Sufism" at the Tashkent State University of Oriental Studies*

**ABSTRACT**

This article briefly examines the life and scientific heritage of Abu Bakr ibn Abu Ishaq Kalabadi Bukhari, one of the famous theorists of Sufism who lived and worked in Bukhara in the 10th century, the founder of the Bukhara school of Sufism.

The article also provides information, based on reliable sources, about the famous work of Abu Bakr Kalabadi on the theory of Sufism - “Kitab at-taarruf or madhabi at-tasawuf”.

**Key words**

Bukhara, Sufism, theory of Sufism, Abu Bakr Kalabadi, “Kitab at-taarruf or madhabi at-tasawuf.”



## АБУ БАКР КАЛАБАДИ - ВЕЛИКИЙ УЧЕНЫЙ-ТЕОРЕТИК СУФИЙСКОГО УЧЕНИЯ

**Навруз Абдубанноев**

*магистрант 2 курса по специальности «Герменевтика суфизма» Ташкентского  
государственного университета востоковедения*

### АБСТРАКТ

В данной статье кратко рассматривается жизнь и научное наследие Абу Бакра ибн Абу Исхака Калабади Бухари, одного из известных теоретиков суфизма, жившего и творившего в X веке в Бухаре, – основателя бухарской школы суфизма.

В статье также приведены сведения, основанные на достоверных источниках, о знаменитом труде Абу Бакра Калабади по теории суфизма – «Китаб ат-таарруф ли мадхаби ат-тасавуф».

### Ключевые слова

Бухара, суфизм, теория суфизма, Абу Бакр Калабади, «Китаб ат-таарруф ли мадхаби ат-тасавуф».

Buxoro o'zining olimlari, madrasalari, ta'lim tizimi bilan nafaqat Movarounnahr, balki butun islom olamida o'ziga xos o'ringa ega hisoblanadigan qadim va ko'hna shaharlardan biridir. Buxorodan shu qadar ko'p va mo'tabar olimlar yetishib chiqqanki, ularni sanab adog'iga yetish qiyin. Hadis, fiqh, aqid, tasavvuf va boshqa islom ilmlarining turli sohalarida ko'zga ko'ringan benazir ulamolar ayni mana shu yurtda tug'ilib voyaga yetgan. Ular ilm tahsili yo'lida turli mashaqqatlarni sabr va bardosh ila yengib o'tgan va bu yo'ldagi uzoq davom etgan tinimsiz harakat, ixlos-muhabbat, haqiqiy er kishilarga xos bo'lgan sabotlari ularni ilm maydoniga olib kirdi. Ana shunday olimlardan biri – Abu Bakr Kalobodiy Buxoriydir.

Allomaning to'liq ismi – Abu Bakr Muhammad ibn Abu Is'hoq ibn Ibrohim ibn Ya'qub Al-Kalabaziy (Kalobodiy; Gulobodiy) Buxoriy, Hanafiya fiqhiy mazhabida bo'lib, ulamolar tarafidan “Toj ul-Islom” unvoniga sazovor bo'lgan. Abu Bakr Kalobodiyning tarjimaiy holiga tegishli ma'lumotlar manbalarda juda ham kam uchraydi. Bu haqida “At-Ta'arruf li mazhabi at-tasavvuf” asarining mashhur shorihlaridan biri hisoblangan Imom Abu Ibrohim Mustamliy Buxoriy o'zining “Sharhi at-Ta'arruf li mazhabi ahli at-tasavvuf” asarida:



“Biz Abu Bakr ibn Abu Is’hoq Kalobodiy Buxoriy haqida kam narsa bilamiz. Uning tug’ilgan yili haqida ma’lumot yo’q. U haqida ma’lum bo’lgani narsa shuki – u Buxoroda joylashgan yirik mahalla – Kalobodga mansub bo’lib, tarixda bu yerga nisbati berilgan ulamolar juda ko’plab topiladi. Kalobodiyning vafot etgan yili haqida hijriy 380 jumodul avval oyining 19-sanasi juma kuni aytilgan bo’lsada, ba’zilar hijriy 384 va 385-yillarni ham zikr qilib o’tgan” - deb yozadi. [2, 264]

Mazkur asarning yana bir shorihi Ali ibn Ismoil al-Quvnaviy Shofi’iy (hij. 668-729-yy) hisblanadi. Uning “Sharhi at-Ta’arruf li mazhabi ahli at-tasavvuf” asarini tahqiq qilgan tasavvufshunos olim Sayyid Yusuf Ahmad o’zining muqaddimasida quyidagilarni aytib o’tgan:

“Men Kalobodiyning tarjimai holini Xayruddin Zirikliy (hij. 1310-1396-yy, mil. 1893-1976-yy.) qalamiga mansub “Kitob al-A’lom” asaridan boshqa manbalarda topmadim. Zirikliy Imom Kalobodiy haqida: “Kalobodiy - Imom Abu Bakr Muhammad ibn Abu Is’hoq ibn Ibrohim ibn Ya’qub Al-Kalabaziy Buxoriy hanafiydir. U Buxoro ahlining hadis “Hofiz”laridan bo’lgan. Uning “الأخذ بار معاني” - “Xabarlarining ma’nolari” nomi bilan mashhur bo’lgan “الأ فوائد بحر” - “Foydalar dengizi” asari bor. Muallif unda jami 592 ta hadisni yig’gan. Yana uning “Kitob at-ta’arruf li mazhabi ahli at-tasavvuf” asari bor”, - degan”. [6, 584]

Mazkur ma’lumotga e’tibor qaratsak, Abu Bakr Kalobodiyning hadis ilmida “Hofiz” darajasiga yetganiga guvoh bo’lamiz. Bu hadis ilmi istilohlaridan bo’lib, Mahmud Tahhon o’zining “الحدیث مصطلح تيسير” - “Hadis ilmi istilohlarini osonlashtirish” kitobida mazkur istiloh haqida ulamolarning ikki xil qarashi mavjudligini bayon qilib, quyidagilarni aytadi:

“Hofiz” istilohi borasida ulamolarning ikki xil qarashi bor:

- birinchisi - “muhaddis” istilohi bilan ma’nodosh ekani va bu ko’pchilik olimlar nazdida;

- ikkinchisi - “muhaddis” dan darajasi yuqori bo’lib, yuqorilik jihati shundaki, “Hofiz” - har bir tabaqada hadis rivoyat qilgan roviylarning aksarini biladigan kishidir.” [5, 296], - deb aytgan.

Ya’ni hadis ilmida alohida “Rijol ilmi” ham bor bo’lib, unda roviylarning tarjimai holi, ustoz va shogirtlari, ilmdagi darajasi, jarh va ta’dil ulamolari tarafidan roviyga va uning rivoyatlariga ishonchlilik jihatidan bergan hukmi o’rganiladi. Hadis ilmi bilan shug’ullangan olimlar tabiiyki roviylarni ana shu jihatlardan o’rganib chiqishgan. Ba’zilar “Muhaddis” va “Hofiz”ning darajasi bir deb aytgan bo’lsa, ba’zilar bu ikki istilohni orasida farq borligini aytib, uni yuqorida keltirib o’tganimizdek izohlagan.

Abu Bakr Kalobodiyning tug’ilgan sanasi haqida manbalarda ma’lumot uchramaydi. Vafoti haqida yuqorida zikr qilingan “At-Ta’arruf li mazhabi at-



tasavvuf” asarining ikki sharhidagi ma’lumotlarga quyidagilarni qo’shimcha qilish mumkin. Alloma qalamiga mansub “الأ فوائ د ب حر” asarining tahqiqini amalga oshirgan olimlar - Muhammad hasan Ismoil va Ahmad Fariyd al-Mazidiy Imom Kalobodiyning vafot etgan sanasini 384-hijriy [6, 392] deb aytib o’tgan bo’lsa, Mustaf o ibn Abdulloh Hoji Xalifa (1017-1068-hij. 1609-1657-mil.) “Kashf az-zunun an asamiy al-kutub val funun” - “Kitoblar va fanlarning nomlaridan gumonlarni ketkazish” asarida 380-hijriy [11, 1123] sanada vafot etganini ta’kidlaydi.

Abu Bakr Kalobodiyning bir qancha ta’lif etgan asarlari bo’lib, uning “معادي الأ فوائ د ب حر” - “Xabarlarning ma’nolari” nomi bilan mashhur bo’lgan “الأ فوائ د ب حر” “Foydalar dengizi” asarida muhaqqiqlar olimning ta’lif etgan asarlariga to’xtalib, jumladan, quyidagilarni sanab o’tadi:

- الأ فوائ د ب حر والأ فوائ د ب حر
- الأ فوائ د ب حر والأ فوائ د ب حر
- الأ فوائ د ب حر والأ فوائ د ب حر
- الأ فوائ د ب حر والأ فوائ د ب حر
- الأ فوائ د ب حر والأ فوائ د ب حر

Mazkur manbalar ichida Kalobodiyning tasavvuf ilmi nazariyasiga bag’ishlangan “Kitob at-ta’arruf li mazhab at-tasavvuf” asari alloma me’rosi orasida alohida ajralib turadi. Musannif mazkur asarda tasavvufning nazariy jihatlarini qisqa, lo’nda va ajoyib tartib bilan bayon etgan. U mavzularning har biriga shu qadar nozik va daqiq yondoshganki, hatto tasavvufni ba’zi xususiyatlarini qoralaydiganlar ham kitobga ta’na qila olmaganlar. Shuning uchun ham bu asar ulamolar tarafidan alohida e’tiborga sazovor bo’lib, unga ko’plab sharh, tahqiq va taxrijlar amalga oshirilgan.

“Kitob at-ta’arruf li mazhab at-tasavvuf” asarining boshqa tasavvufiy manbalardan ajralib turadigan o’ziga xos jihatlaridan biri - kitobda aqidaviy masalalarga ham alohida e’tibor qaratilib, ular uchun alohida boblar ajratilganligidadir. Unda tasavvuf ahlining aqidaviy qarashlari, xususan, Alloh taoloning zoti, ism va sifatleri, Alloh taoloning azaldan xoliq ekanligi haqidagi ixtilof kabi jami yigirma oltita bobda e’tiqodiy qarashlarni bayon qilgan. Quyida asardan bir bob misolida ayni shu narsani ko’rishimiz mumkin.

Imom Kalobodiy kitobning beshinchi bobini “Tasavvuf ahlining “Tavhid” haqidagi so’zlarining sharhi” deb nomlab, bu bobda jumladan quyidagilarini aytadi:

“Sufiylar Alloh taolo yakka-yu yolg’iz ekanligi borasida ijmo qilgan.” [1, 144]



Kitobning shorihlaridan biri Aliy ibn Ismoil Quvnaviy Shofi'iy Alloh taoloning sifatlarida yolg'izligi borasidagi Kalobodiyning so'zlarini quyidagicha sharhlaydi:

“Alloh taoloning sifatleri boshqa biror narsaning sifatiga o'xshamaydi, Alloh taoloning sifatleri zotining ayni ham undan boshqa ham emas” [3, 584]

Mazkur e'tiqodiy qarash ahli sunna val jamoaning mazhabidir. Bu aqida ilmidan va e'tiqodiy hukmlar borasida yozilgan mo'tabar manbalardan xabardor bo'lgan kishiga sir emas.

So'ng muallif Alloh taoloning ismlaridan ba'zilarini zikr qiladi:

“Somad, Qadim, Olim, Qodir, Hay, Sami', Basir, Aziz, Adzim, Jalil, Kabir, Javod, Rouf, Mutakabbir, Jabbor, Boqiy, Avval, Iloh, Sayyid, Molik, Rabb, Rahmon, Rahim, Murid, Hakim, Mutakallim, Xoliq, Roziq.” [1, 144]

Alloh taoloning mazkur ismlari Qur'oni karim va hadisi shariflarda sobit bo'lgan. Musannif kitobda Alloh taoloning ismlarini zikr qilgandan keyin, Uning sifatlariga kirishib quyidagilarni aytadi:

“O'zini sifatlagan barcha sifatlar bilan sifatlangan, O'zini nomlagan ismlarning barchasi bilan nomlangandir. Barcha ismlari va sifatleri bilan hech zoil bo'lmagan Qadimdir. Biror vajhdan maxluqotlariga o'xshamaydi. Allohning Zotini boshqa zotlarga, sifatlerini boshqa sifatlarga o'xshatmaymiz. Alloh taologa nisbatan maxluqlarning yaratilganiga dalolat qiluvchi belgilaridan biror narsa joriy bo'lmaydi. Alloh taolo yaratilmishlardan oldin va muqaddamlikda doim, har bir narsadan oldin mavjud, Undan o'zga qadim, Undan boshqa iloh yo'q. U jism emas, shakl emas, surat emas, shaxs emas, javhar emas, araz emas. U uchun jamlanish ham yo'q bo'linish ham yo'q, harakatda ham emas sukunatda ham emas. U kamaymadi ziyaoda ham bo'lmaydi. Bo'laklar va juzlar, a'zolar va javorihlar egasi emas. Taraflar va makonlar egasi emas. Vaqtlar Unga joriy bo'lmaydi ...”.

Bu jummalarni e'tibor bilan o'qigan insofli kishi Kalobodiyning kalom ilmida ham naqadar buyuk olim bo'lganiga zarracha shubha qilmaydi. Uning so'zlarida musulmon kishi Alloh taolo haqida e'tiqod qilishi lozim bo'lgan ma'nolar qisqa va lo'nda bayon qilinmoqda.

## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Abu Bakr Muhammad ibn Abu Is'hoq Kalobodiy. At-Ta'arruf li mazhabi ahli at-tasavvuf. – Qohira: “Maktabat ul-Xanjiy”, 2011.



2. Abu Ibrohim Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulloh Mustamliy Buxoriy. Sharh at-ta'arruf limazhabi at-tasavvuf. – Tehron: “Donishgohi Tehron”, 2016.
3. Aliy ibn Ismoil Quvnaviy Shofi'iy. Sharh at-ta'arruf limazhabi ahl at-tasavvuf. Bayrut: “Dar ul-kutub al-ilmiyya”, 2019. – B.584.
4. Komilov, Najmiddin. Tasavvuf. Tavhid asrori. Ikkinchi kitob. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1999.
5. Mahmud Tahhon. “الحدیث مصطلح تیسیر”. Ar-Riyod.: “Maktabatul maorif linnashr vat tavzi”, 2010.
6. Muhammad Hasan Ismoil, Ahmad Fariyd al-Mazidiy. Shayx Abu Bakr Muhammad ibn Abu Is'hoq Kalobodiyning “الأخ بار بمعاني المشهور الفوائد بحر” asari tahqiqi. Bayrut: “Dar ul-kutub al-ilmiyya”, 1999. – B.392.
7. Sayyid Yusuf Ahmad. Aliy ibn Ismoil Quvnaviy Shofi'iyning “Sharh at-ta'arruf limazhabi ahl at-tasavvuf” asari tahqiqi. - Bayrut: “Darul kutub al-ilmiyya”, 2019, - b 584.
8. Холмұминов, Ж. М. (2022). “ҚИЁСИЙ ТАСАВВУФШУНОСЛИК” – ТАСАВВУФ ТАРИХИ ВА ФАЛСАФАСИ ДОИРАСИДАГИ ЯНГИ ФАН СИФАТИДА. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 194-213.
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: “Hilol nashr”, 2010. – B.280.
10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, “Ruhiy tarbiya 1-2-3-juzlar”. – Toshkent: “Hilol nashr”, 2008.
11. Hoji Xalifa Mustafo ibn Abdulloh kotib Chalabiy al-Qustontiniy. “Kashf az-zunun an asamiy al-kutub val funun”. Bayrut, Livan. : “Daru ihyau at-turos al-arabiy” , 1999. B.1123.